



XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-APREL



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalisiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

66,6 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi

62,2 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
1 873,1 ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
105,5 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
3 674,4 mlrd so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati
107,4 %

2023- yil yanvar-aprel


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 674,4** mlrd so'mga yetib, taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,4** %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel oylarida)





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar - jami	3 674,4	107,4
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	206,9	124,8
Moliyaviy xizmatlar	856,2	121,2
Transport xizmatlari	794,9	101,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	744,2	99,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	97,1	103,3
Savdo xizmatlari	890,8	101,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	88,5	104,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	156,7	99,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	78,8	105,7
Ijara xizmatlari	59,1	96,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	152,5	105,4
Shaxsiy xizmatlar	138,8	103,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	56,3	111,8
Boshqa xizmatlar	97,8	106,2



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



5

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**2023- yil yanvar-aprel****Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2023- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **24,2** %ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **4,2** %ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiy hajmda **25,4** %ni tashkil etgan. 2022-yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **4,1** %.

2023- yil yanvar-aprel oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**121,2** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**124,8** %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**111,8**%) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari (**105,7** %)da qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida boshqa xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (122,1 %), moliyaviy xizmatlarda (122,5 %) o'sish kuzatilgan.



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da



■ 2022- y. yanvar-aprel

■ 2023- y. yanvar-aprel



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2023- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **24,2 %**ni tashkil etdi, bu esa **890,8** mlrd so'mga to'g'ri keldi.


Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **780,5** mlrd so'mga yoki umumiy hajmning **25,4 %** ga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2022- y.
yanvar-aprel
Xizmatlar hajmi
780,5 mlrd so'm

O'sish sur'ati
108,2 %

Ulushi
25,4 %



2023- y.
yanvar-aprel
Xizmatlar hajmi
890,8 mlrd so'm

O'sish sur'ati
101,6 %

Ulushi
24,2 %



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **75,1 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2023- yil yanvar-aprel oylarida)

**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**




**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**

9,3 %

75,1 %

15,6 %



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo ulushi **75,3 %**ga yetgan.



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-aprel oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **856,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **639,5** mrd so'mga teng bo'lgan.

2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **23,3** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **20,8** %ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **216,7** mlrd so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **121,2** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati **122,5** % ga yetgan.



2023- yil yanvar-aprel


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **89,4 %**ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **8,1 %** darajada qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-aprel oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Sug'urta bo'yicha xizmatlar



Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **89,8 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,9 %**ga to'g'ri kelgan.



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-aprel oylarida)

**2022- y.
yanvar-aprel**

**162,1
mlrd so'm**

122,1 %

5,3 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

**Jami hajmdagi
ulushi**

Hajmning o'sishi

44,8 mlrd so'mga

**2023- y.
yanvar-aprel**

**206,9
mlrd so'm**

124,8 %

5,6 %



2023- yil yanvar-aprel



Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshi aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **95,2 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y. yanvar-aprel

2023- y. yanvar-aprel



Telekommunikatsiya xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **94,8 %**ga yetgan.



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**138,2
mlrd so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**156,7
mlrd so'm**

**2022- y.
yanvar-
aprel**



**2023- y.
yanvar-
aprel**

2023- yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **156,7** mlrd so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,3** % ni tashkil etdi.

99,6 %

O'sish sur'atlari, % da


99,1 %

2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **99,1** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **138,2** mlrd so'mga teng bo'lgan. 2021- yil yanvar-aprel oylarida nisbatan o'sish **99,6** % darajasida qayd etilgan.

2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd so'm

74,6

2022- y.
yanvar-aprel

97,1

2023- y.
yanvar-aprel



O'sish
sur'ati, % da

106,5

103,3

2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **15,0** mlrd so'mga ortdi.



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2023- y. yanvar-aprel

81,2 %

18,8 %



20,1 %

79,9 %

2022- y. yanvar-aprel



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**



Yashash bo'yicha xizmatlar

2023- yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **81,2 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilda ularning ulushi **79,9 %**ni tashkil etgan.



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y. yanvar-aprel

2023- y. yanvar-aprel

64,6
mlrd so'm

**Xizmatlar
hajmi**

78,8
mlrd so'm

112,0 %

**O'sish
sur'ati**

105,7 %

2,0 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

2,2 %





2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %da (2023- yil yanvar-aprel oylarida)

	Umumiy hajmdagi ulushi, % da	O'sish sur'ati, 2022- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan % da
Xorazm viloyati	100,0	107,4
Urganch shahri	36,2	108,4
<i>Xiva shahri</i>	4,6	113,5
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	5,4	103,8
Gurlan	5,4	111,0
Qo'shko'pir	5,2	108,9
Urganch	7,4	103,2
Hazorasp	7,2	105,1
Tuproqqal'a	2,5	118,3
Xonqa	7,0	110,8
Xiva	5,3	101,5
Shovot	5,3	106,2
Yangiariq	4,7	105,4
Yangibozor	3,8	104,7

2023- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli bo'lgan - **36,2 %** (2022- yilda **35,9 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichi Tuproqqal'a tumanida kuzatilgan – **2,5 %**.

2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da	
		2023- y.	2022- y.
Xorazm viloyati	3 674,4	107,4	112,4
Urganch shahar	1328,8	108,6	115,0
Xiva shahar	167,8	113,5	111,1
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	200,6	103,8	113,8
Gurlan	197,6	111,0	108,8
Qo'shko'pir	190,4	108,9	107,4
Urganch	273,0	103,2	100,5
Hazorasp	266,2	105,1	106,9
Tuproqqal'a	91,1	118,3	124,1
Xonqa	257,3	110,8	111,8
Xiva	193,1	101,5	111,3
Shovot	196,6	106,2	109,3
Yangiariq	171,4	105,4	112,4
Yangibozor	140,5	104,7	117,4

**) Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

1 873,1
ming so'm

Hajmning
o'sishi

280,6 ming
so'mga

2023- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 873,1** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,5** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2022- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 592,6** ming so'mni tashkil etgan.

105,5 %

O'sish sur'ati

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 62-224-65-16